

FRANSUZCHA FRAZEOLOGIZMLARDA INKOR KATEGORIYASINING**IFODALANISHI**

Suvonova Nigorabonu Nizomiddinovna

Samarqand davlat chet tillar instituti, Roman-german tillari fakulteti

Fransuz filologiyasi kafedrası professori

Samarqand viloyati, Pastdarg'om tumani, Ziyolilar ko'chasi, 30-uy

Telefon: +998 93 728 04 38

Elektron pochta: snigorabonu@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-7766-9819

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20096375>

Annotatsiya. Ushbu maqolada fransuz tilidagi frazeologik birliklarda inkor kategoriyasining ifodalanish xususiyatlari o'rganilgan bo'lib, jumladan inkor kategoriyasining grammatik, leksik-semantik va pragmatik vositalar orqali berilishi tahlil qilinadi. Xususan, fransuz tilidagi an'anaviy inkor shakllari (ne ... pas, ne ... jamais, ne ... rien va boshqalar) bilan bir qatorda, frazeologik birliklar tarkibida yashirin yoki kuchaytirilgan inkor ma'nosining ifodalanishi ko'rib chiqilib, frazeologizmlarning strukturaviy xususiyatlari va ularning inkor kategoriyasi bilan o'zaro aloqasi aniqlanadi. Shuningdek, frazeologik birliklar orqali inkorning ekspressiv va stilistik imkoniyatlari misollar asosida yoritiladi. Tadqiqot natijalari fransuz tili frazeologiyasi va umumiy tilshunoslikda inkor kategoriyasini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: inkor kategoriyasi, frazeologizm, fransuz tili, semantika, pragmatika, grammatik inkor.

Аннотация

В данной статье рассматриваются особенности выражения категории отрицания во французских фразеологических единицах. В исследовании анализируются грамматические, лексико-семантические и прагматические средства выражения отрицания. Особое внимание уделяется как традиционным формам отрицания во французском языке (ne ... pas, ne ... jamais, ne ... rien и др.), так и имплицитным и усиленным способам передачи отрицательного значения во фразеологизмах. В статье выявляются структурные особенности фразеологических единиц и их взаимосвязь с категорией отрицания. Кроме того, на основе примеров раскрываются экспрессивные и стилистические возможности отрицания во французской фразеологии. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию категории отрицания в рамках французской фразеологии и общей лингвистики.

Ключевые слова: категория отрицания, фразеологизм, французский язык, семантика, прагматика, грамматическое отрицание.

Abstract

This article examines the peculiarities of expressing the category of negation in French phraseological units. The study analyzes grammatical, lexical-semantic, and pragmatic means of negation. Particular attention is paid not only to traditional negative constructions in French (ne ... pas, ne ... jamais, ne ... rien, etc.) but also to implicit and intensified forms of negation within phraseological expressions. The paper identifies structural characteristics of phraseological units and their interaction with the category of negation. Furthermore, the expressive and stylistic potential of negation in French phraseology is illustrated through

relevant examples. The findings contribute to a deeper understanding of negation as a linguistic category in both French phraseology and general linguistics.

Keywords: negation category, phraseological unit, French language, semantics, pragmatics, grammatical negation.

KIRISH

Tilshunoslikda frazeologik birliklar tilning eng murakkab va ko'p qirrali qatlamlaridan biri hisoblanadi. Ular nafaqat nominativ funksiyani bajaradi, balki xalqning madaniyati, mentaliteti va dunyoqarashini ham o'zida aks ettiradi. Shu sababli frazeologizmlarni o'rganish zamonaviy lingvistikaning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Inkori kategoriyasi esa tilning universal grammatik-semantik kategoriyalaridan biri bo'lib, u orqali voqelikning inkori etilishi, mavjud emasligi yoki rad etilishi ifodalanadi. Fransuz tilida inkor odatda an'anaviy grammatik shakllar orqali ifodalanadi, biroq frazeologik birliklar tarkibida inkor ma'nosi ko'pincha yashirin, ko'chma yoki kuchaytirilgan shaklda namoyon bo'ladi. Bu esa mazkur kategoriyani chuqurroq va kompleks o'rganishni talab qiladi. Ayniqsa, fransuz tilidagi frazeologik birliklarda inkorning ifodalanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, u faqat sintaktik vositalar bilan cheklanmaydi. Ko'plab frazeologizmlarda inkor semantik darajada mujassamlashgan bo'lib, ular orqali kuchli emotsional va ekspressiv ma'nolar ifodalanadi. Masalan, ayrim iboralarda inkor shakli bevosita qo'llanilmasa ham, umumiy ma'no rad etish yoki inkor qilishni anglatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Frazeologiya va inkor kategoriyasi tilshunoslikda alohida o'rganilgan yo'nalishlar bo'lsa-da, ularning o'zaro kesishgan nuqtalari nisbatan kam tadqiq etilgan. Xususan, fransuz tilidagi frazeologik birliklarda inkor kategoriyasining ifodalanishi murakkab lingvistik hodisa sifatida ko'plab olimlarning e'tiborini tortgan. Frazeologiya nazariyasining shakllanishida rus tilshunos olimi V.V. Vinogradovning ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. U frazeologik birliklarni semantik yaxlitlik darajasiga ko'ra tasniflab, ularning tarkibiy va ma'no jihatlarini chuqur tahlil qilgan [1]. Vinogradovning tasnifi fransuz frazeologiyasini o'rganishda ham metodologik asos sifatida keng qo'llaniladi.

Fransuz tilshunosligida frazeologik birliklar masalasi Sh. Bally tomonidan keng o'rganilgan. U frazeologizmlarni stilistik va ekspressiv vosita sifatida ko'rib, ularning nutqdagi rolini alohida ta'kidlaydi [2]. Ballyga ko'ra, frazeologik birliklar ko'pincha kuchli emotsional va baholovchi ma'nolarni ifodalaydi, bu esa inkor kategoriyasining ekspressiv shakllarini tushunishda muhimdir.

Inkor kategoriyasining lingvistik tabiati esa ko'plab umumiy tilshunoslik tadqiqotlarida yoritilgan. Masalan, O. Jespersen inkorning rivojlanish bosqichlarini o'rganib, uning grammatik va semantik o'zgarishlarini tahlil qilgan [3]. Uning nazariyasiga ko'ra, inkor vaqt o'tishi bilan kuchaytiruvchi elementlar bilan boyib boradi, bu esa fransuz tilidagi “ne ... pas” konstruksiyasining shakllanishini tushuntiradi. Fransuz tilida inkor kategoriyasini o'rganishda Grevisse va Goosse tomonidan yozilgan fundamental grammatika asari alohida o'rin tutadi. Unda inkorning turli shakllari, jumladan “ne ... jamais”, “ne ... rien”, “ne ... personne” kabi konstruksiyalar batafsil tahlil qilingan [4]. Ushbu manba frazeologik birliklarda inkorning grammatik ifodasini tushunishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Frazeologizmlarda inkorning semantik jihatlarini esa A.V. Kunin tomonidan chuqur o'rganilgan. U frazeologik birliklarda yashirin (implitsit) ma'nolarning mavjudligini ta'kidlab, ularning kontekstga

bog'liqligini ko'rsatadi [5]. Bu yondashuv fransuz frazeologizmlarida inkorning bevosita grammatik shaklda emas, balki ko'chma ma'no orqali ifodalanishini tushuntiradi.

O'zbek tilshunosligida ham frazeologiya va semantika masalalari bo'yicha qator ilmiy ishlar mavjud. Xususan, Sh. Rahmatullayev frazeologik birliklarning tuzilishi va ma'no xususiyatlarini tahlil qilib, ularning milliy-madaniy xususiyatlarini ochib beradi [6]. Bu yondashuv fransuz va o'zbek frazeologiyasini qiyosiy o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, N. Mahmudov va boshqa o'zbek tilshunoslari til birliklarining pragmatik va semantik xususiyatlarini o'rganib, nutqdagi yashirin ma'nolarni aniqlashga e'tibor qaratgan [7]. Bu esa frazeologizmlarda inkorning pragmatik jihatlarini tahlil qilishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, frazeologiya va inkor kategoriyasi alohida o'rganilgan bo'lsa-da, ularning o'zaro bog'liqligi, ayniqsa fransuz tilida, yetarli darajada kompleks tadqiq etilmagan. Shu bois mazkur maqola ushbu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Mazkur tadqiqotda fransuz tilidagi frazeologik birliklarda inkor kategoriyasining ifodalanish xususiyatlarini aniqlash uchun bir nechta lingvistik metodlardan foydalanildi. Avvalo, **deskriptiv metod** asosida frazeologik birliklar tanlab olinib, ularning tarkibidagi inkor shakllari tavsiflandi. Bu orqali inkorning grammatik (masalan, *ne ... pas, ne ... jamais*) va noan'anaviy shakllari aniqlashtirildi. Shuningdek, **semantik tahlil metodi** yordamida frazeologizmlarda inkorning ochiq va yashirin (implitsit) ifodalanishi o'rganildi. Masalan, "*ne pas dire un mot*" iborasida inkor bevosita ifodalangan bo'lsa, "*être loin de la vérité*" birikmasida inkor semantik jihatdan namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, **kontekstual tahlil** orqali frazeologik birliklarning nutqdagi qo'llanishi va ularning pragmatik funksiyalari — ekspressivlik, baholovchilik va ta'sirchanlik jihatlari tahlil qilindi. Tadqiqotda qisman **qiyosiy-tahliliy metod** ham qo'llanilib, fransuz frazeologizmlari boshqa tillardagi o'xshash birliklar bilan solishtirildi. Bu inkor kategoriyasining universal va milliy xususiyatlarini aniqlashga yordam berdi. Tadqiqot materiali sifatida frazeologik lug'atlar, izohli grammatik manbalar hamda badiiy matnlardan olingan misollar asos qilib olindi.

NATIJALAR TAHLILI VA MUHOKAMA

Mazkur tadqiqot natijalari fransuz tilidagi frazeologik birliklarda inkor kategoriyasining ifodalanishi murakkab, ko'p qatlamli va tizimli hodisa ekanligini ko'rsatdi. Tahlil qilingan materiallar asosida shuni aytish mumkinki, inkor frazeologik birliklarda faqat grammatik kategoriya sifatida emas, balki semantik va pragmatik darajalarda ham faol namoyon bo'ladi. Bu holat frazeologizmlarning til tizimida alohida o'rin tutishini va ularning ma'no strukturasi ko'p qatlamli ekanligini tasdiqlaydi.

Avvalo, grammatik inkor shakllarining frazeologik birliklarda keng qo'llanilishi aniqlangan. Fransuz tilida an'anaviy inkor konstruktsiyalari — *ne ... pas, ne ... rien, ne ... jamais* kabi shakllar frazeologizmlar tarkibida asosiy struktura komponenti sifatida ishtirok etadi. Masalan, *ne pas lever le petit doigt* (hech qanday harakat qilmaslik), *ne rien dire* (hech narsa demaslik), *ne jamais dire jamais* (hech qachon "hech qachon" dema) kabi iboralarda inkor grammatik jihatdan aniq ifodalangan bo'lib, butun frazeologik birlikning semantik markazini tashkil etadi. Ushbu holat Jespersen tomonidan ta'kidlangan inkor konstruktsiyalarining tarixiy rivojlanishi va kuchayish jarayoni bilan ham mos keladi [3]. Shu bilan birga, fransuz frazeologiyasida inkor har doim ham bevosita grammatik vositalar orqali ifodalanmaydi. Aksincha, ko'plab frazeologik birliklarda inkor yashirin, ya'ni implitsit tarzda namoyon bo'ladi.

Bunday hollarda inkor ma'nosi grammatik ko'rsatkichlar orqali emas, balki butun iboraning semantik tuzilishi orqali anglashiladi. Masalan, *être loin de la vérité* (haqiqatdan yiroq bo'lmoq), *tomber à côté* (muvaqqiyatsizlikka uchramoq), *manquer le coche* (imkoniyatni qo'ldan boy bermoq) kabi birliklarda inkor bevosita ifodalanmagan bo'lsa-da, ularning mazmunida rad etish, mos kelmaslik yoki muvaqqiyatsizlik semantikasi mavjud. Bu holat A.V. Kunin tomonidan ta'kidlangan frazeologik birliklarning implitsit semantikasi konsepsiyasi bilan izohlanadi [5].

Frazeologik birliklarda inkorning yana bir muhim jihati uning pragmatik funksiyasidir. Inkor frazeologizmlar nutqda faqat ma'no ifodalash vositasi emas, balki kommunikativ ta'sirni kuchaytiruvchi ekspressiv vosita sifatida ham xizmat qiladi. Masalan, *ce n'est pas la mer à boire* (bu unchalik qiyin emas) iborasida inkor orqali ma'no yumshatiladi va baholovchi munosabat ifodalanadi. Shuningdek, *ne pas être dans son assiette* (o'zini yomon his qilmoq) iborasida inkor emotsional holatni kuchaytiruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Bu esa Mahmudov tomonidan ta'kidlangan pragmatik ma'no qatlamlarining frazeologiyada muhim o'rin tutishini tasdiqlaydi [7]. Tahlil davomida frazeologik birliklarning strukturaviy xususiyatlari ham inkorning ifodalanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Fe'l markazli frazeologizmlarda inkor asosan grammatik shaklda ifodalansa, ot va sifat asosidagi birliklarda u ko'proq leksik-semantik vositalar orqali namoyon bo'ladi. Masalan, *ne pas bouger d'un pouce* (qimirlamaslik) iborasida grammatik inkor mavjud bo'lsa, *une affaire sans issue* (yechimsiz ish) iborasida inkor "sans" predlogi orqali leksik darajada ifodalangan. Grevisse va Goosse bu kabi konstruktsiyalarni inkorning muqobil ifoda shakllari sifatida tavsiflaydi [4].

Fransuz frazeologiyasida inkor kategoriyasi uch asosiy darajada namoyon bo'ladi: grammatik, semantik va pragmatik. Grammatik daraja inkorning bevosita ifodalanishini ta'minlasa, semantik daraja uning yashirin shakllarini ochib beradi, pragmatik daraja esa uning nutqiy ta'sir va ekspressivlik funksiyasini belgilaydi. Bu uch daraja o'zaro integratsiyalashgan holda frazeologik birliklarning murakkab lingvistik tabiatini shakllantiradi. Shuningdek, olingan natijalar Vinogradov va Bally tomonidan ilgari surilgan frazeologiya nazariyalarini tasdiqlaydi, ya'ni frazeologik birliklar nafaqat til birligi, balki madaniy va stilistik hodisa sifatida ham qaraladi [1; 2]. Jespersenning inkor evolyutsiyasi haqidagi fikrlari esa frazeologik tizimda ham o'z aksini topadi, chunki inkor vaqt o'tishi bilan grammatikdan semantik va pragmatik darajalarga o'tadi [3]. Qisqacha qilib aytganda, fransuz tilidagi frazeologik birliklarda inkor kategoriyasi murakkab lingvistik fenomen bo'lib, u tilning strukturaviy, semantik va kommunikativ imkoniyatlarini birlashtiradi hamda tilning ekspressiv salohiyatini oshiradi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot fransuz tilidagi frazeologik birliklarda inkor kategoriyasining ifodalanish xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlandi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, inkor frazeologizmlar tarkibida faqat grammatik hodisa sifatida emas, balki semantik va pragmatik darajalarda ham faol namoyon bo'ladigan murakkab lingvistik kategoriya hisoblanadi. Bu esa frazeologik birliklarning ko'p qatlamli ma'no tuzilishiga ega ekanligini tasdiqlaydi. Tahlillar natijasida grammatik inkor fransuz frazeologiyasida eng keng tarqalgan shakl ekanligi aniqlandi. U asosan *ne ... pas, ne ... rien, ne ... jamais* kabi konstruktsiyalar orqali ifodalanib, frazeologik birliklarning strukturaviy asosini tashkil etadi. Shu bilan birga, inkorning semantik (yashirin) shakllari ham keng uchraydi va ular iboraning umumiy ma'nosi orqali anglashiladi (*être loin de la vérité, manquer le coche* kabi). Bu holat inkorning nafaqat

grammatik, balki ma’naviy darajada ham faol ekanligini ko’rsatadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari inkorning pragmatik funksiyasi ham muhim o’rin tutishini ko’rsatdi. Frazeologik birliklarda inkor ko’pincha ekspressivlikni kuchaytirish, baholash va nutqiy ta’sirni oshirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Umuman olganda, fransuz frazeologiyasida inkor kategoriyasi grammatik, semantik va pragmatik darajalarning o’zaro integratsiyasi natijasida shakllanadigan murakkab lingvistik hodisa sifatida namoyon bo’ladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Bally Ch. *Traité de stylistique française*. — Genève: Georg & Cie, 1909. - 331 p.
2. Jespersen O. *Negation in English and Other Languages*. - Copenhagen: A. Høst, 1917. - 151 p.
3. Grevisse M., Goosse A. *Le Bon Usage: Grammaire française*. - Louvain-la-Neuve: De Boeck Supérieur, 2016. - 1750 p.
4. Mel’čuk I.A. *Phraseology in Language and Linguistics: A Theoretical Draft*. - Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins Publishing, 2012. - 422 p.
5. Rahmatullayev Sh. *O’zbek tilining frazeologik lug’ati*. - T.: O’qituvchi, 1992. - 380 b.
6. Mahmudov N. *Til va nutq*. - T.: Fan, 2013. - 216 b.
7. Виноградов В.В. *Избранные труды. Лексикология и лексикография*. М.: Наука, 1977. - С. 312.
8. Кунины А.В. *Курс фразеологии современного английского языка*. - М.: Высшая школа, 1996. - С. 381.